

MADANIY MARKERLANGAN LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK
LEKSIKASI VA ULARNING TARJIMA TRANSFORMATSIYASI
MASALALARI

Muratxodjayeva Feruzaxon Xotamovna

Oriental Universiteti, f.f.f.d., v.b.dotsent

E-mail: feruzakhon81@mail.ru

“Tarjima – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima – millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra tafsil, tadbil, sharh kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilalarga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og‘zaki turi hozirda ham saqlangan”.

Tarjima tufayli bir madaniyat ikkinchisiga o‘tadi, uni yangi elementlar bilan boyitadi hamda tarjima qilinayotgan madaniyat elementlarining universallik darajasini oshiradi. “Madaniyatlarning o‘zaro ta’sirida tarjima kitobxonga boshqa xalqlarda ham o‘zgacha urf-odatlar borligini tushunishga, boshqalarning madaniyatini hurmat qilishga, o‘zga madaniyatga xos bo‘lgan dalillarni va g‘oyalarni o‘rganish natijasida o‘z dunyo qarashini kengaytirishga imkon yaratishi bilan ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega” bo‘ladi. Eng avvalo, asl matndagi madaniy axborotni yetkazishda tarjimon asl matnda ifodalangan madaniy axborotning qanday qiymatga ega ekanligini oldindan bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda turli sohalar bo‘yicha chet tillarida yaratilgan asarlarning o‘zbek tiliga bevosita o‘girila boshlangani, shubhasiz, adabiy-madaniy aloqalarining kengayishida katta rol o‘ynaydi.

A.Noybert matnning quyidagi turlarini ajratadi: ona tiliga qaratilgan matnlar;

ona tilida so‘zlashuvchiga qaratilgan matnlar;

birinchi va ikkinchi guruh o‘rtasida oraliq pozitsiyani egallagan matnlar, ya’ni, birinchi navbatda, til sohibiga, shuningdek, har qanday barcha kategoriyadagi til o‘rganuvchilariga qaratilgan.

Birinchi guruh matnlariga misollar: ayrim qonun hujjatlari, mahalliy matbuot materiallari, ayniqsa, mahalliy ahamiyatga molik voqealarni yorituvchi materiallar, ichki bozor uchun mo‘ljallangan reklama. Mazkur



matnlar aslyyat tili sohiblarining qiziqishlarini aks ettiradi va xorijlik retseptni nazarda tutmaydi.

Ikkinchi guruh matnlariga misollar: xorijiy auditoriyaga qaratilgan axborotlashuv materiallari. Ideal holda, bunday matnlarning mualliflari ularni chet ellik o'quvchi yoki tinglovchining mo'ljallangan reaksiyasini hisobga olgan holda yozishlari kerak. Bunday holda tarjimonning vazifasi imkon qadar soddalashtiriladi: u matnni tashkil etuvchi komponentning pragmatik komponentini hisobga olishi muhim emas, chunki bu vazifani jo'natuvchi, ya'ni matn muallifi o'z zimmasiga oladi. Biroq amalda, ko'pincha, ingliz tilini yaxshi biladigan retseptor va uning fon bilimlari kengligini e'tiborga olgan tarjimon matnning mazmuniga pragmatik jihatdan qo'shimcha tuzatishlar kiritishi mumkin bo'ladi.

Uchinchi guruh matnlari, xususan, asl tilda so'zlashuvchilar uchun yozilgan, lekin ayni paytda umuminsoniy ahamiyatga ega va shuning uchun kengroq o'quvchilar ommasiga qaratilgan badiiy adabiyotlar kiradi. Bu holda manba tili va tarjima tili o'rtasidagi pragmatik farqlarga tuzatishlar kiritish tarjimonning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Bu guruhga turli mamlakatlar olimlari nomiga yozilgan, mavzu bilan bir xil darajada tanish va bir xil miqdordagi dastlabki ma'lumotlarni o'zlashtirgan ilmiy matnlar kiradi. Bunda xuddi ikkinchi guruh matnlari tarjimasida bo'lgani kabi (lekin turli sabablarga ko'ra) tarjimaning pragmatik jihatlari ikkinchi o'ringa o'tadi.

Odatda, tarjima jarayonida matnda tarjima tili pragmatik munosabatlarining denominativ va konnotativ munosabatlari o'rtasidagi farqni adresatga to'g'ri yetkazishda asl matnning pragmatik moslashuvi sodir bo'ladi, ya'ni asl va tarjima matnini retseptorlari o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa farqlarga muayyan tuzatishlar kiritishdan iboratdir. A.Noyber fikricha, asl matnga semantic jihatdan mos keladigan matn o'rganilayotgan tilning “pragmatik munosabatlar tushunchasi” yuzaga keltiradi. Chet tilidagi axborotni tarjima tili sohiblariga yetkazishda yuqorida aytib o'tilgan o'quvchidagi mavjud fon bilimlari nuqtai nazaridan shu tilda mavjud semantik ekvivalentlikni topish tarjimonning tarjimondan ham lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasining yuqori darajada bo'lishini talab etadi.

Chunki tarjima jarayonida turli til tizimlarini solishtirish bilan bir qatorda tillarning madaniyatlari ham solishtiriladi, taqqoslanadi. Shu bois tarjimon bir vaqtning o'zida etnografiya va madaniyatshunoslikdan yetarli malaka va bilimga ega bo'lmasa, ikki til madaniyatidagi axborotni o'quvchiga to'g'ri yetkaza olmaydi. Matnning madaniy-pragmatik jihati xalq urf-odatlarini,



an’analari bilan bog’liq etnografik madaniy to’siqlarni o’z ichiga olishini Yu.Nayda “*oppoq qor*” so’zi orqali tushuntirib beradi. Uningcha, bu tushuncha qish bo’lmaydigan issiq iqlimli o’lkalarda oq rang bilan bog’liq assotsiativ tushunchani hosil qiladi. Matnni madaniy-pragmatik moslashtirish misoli tariqasida V.Shekspirning o’n sakkizinchi soneti dastlabki satrlarining o’zbek tiliga tarjimasiga e’tibor qaratsak: “*Shall I compare thee to a summer’s day...?*”

– *Men sizni yoz kunlari bilan solishtiraman...*(Muallif tarjimas) *Yoz* so’zining denotativ ma’nosining aniq ko’chirilishi o’zbek o’quvchisida Shekspir matni mag’zini keltirib chiqarishi qiyin.

Sababi, inglizlar sovuq va nam havo iqlimida bo’lganligi bois, ularda *yozi kunlari* go’zallik tushunchasi bilan bog’liq. O’zbek o’quvchisida esa yozning jazirama kuni tasviri asl matnda ifoda etilgan o’xshash assotsiatsiyani uyg’otishi qiyin. Shu sababli, tarjima matnda ekvivalentlikni saqlab qolish uchun yoz kuni tushunchasini bahor leksemasi bilan almashtirish zarur bo’ladi. Bu tarjima amaliyotida tez-tez uchrab turadigan holatning yaqqol misolidir, bunda denominativ ma’noning aniq ko’chirilishi pragmatik ma’noning ko’chishi bilan mos kelmaydi va tarjimon asliyat matndagi ma’noni saqlab qolish uchun uni tarjima matnida tarjima tili egalari madaniyatiga moslashtirishga majbur bo’ladi. Yuqoridagi misolda, A.Noyber fikri bilan aytganda, ikkilamchi matnda yaratilgan ma’no invariant iboraning obektiv ma’nosi emas, balki go’zallik bilan bog’lanishini ifodalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sharipova Surayyo Burxanovna-The impact of spoken language on pupils’ mental activity: A cognitive exploration/2023/11/15
2. Sharipova Surayyo Burkhanovna-Androgical cooperation mechanisms in the formation of a common worldwide in family relations /2023/9/16
3. Surayyo Burhanovna Sharipova.-MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION/2023
4. Сурайё Бурхановна Шарипова-Роль семьи в формировании познавательного интереса одаренных детей/2021
5. Сурайё Бурхановна Шарипов-,Оилада ёшлар умуммаданий дунёқараши шакллантириш мазмуни/2021
6. Sharipova, S. B-Some aspects of formation of students' general cultural outlook in a higher educational institutions/Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852



7. Сурайё Бурхановна Шарипова-Педагогические ориентиры формирования мировоззренческой культуры студенческой молодежи в высших образовательных учреждениях/2018

